



THE NASAFI SCHOLAR WHO DEVOTED HIMSELF TO THE RATIONAL SCIENCES

Sunnatilla Bakhromov

Researcher

Imam Maturidi International Scientific-Research Center

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Burhanuddin al-Nasafi, Maturidism, “Kashf al-Haqa’iq”, “al-Fusul al-Burhaniya”, tabaqat, Ibn al-Fuwati, Shamsuddin al-Samarqandi, iman al-muqallid, ‘ilm al-kalam, bibliographical confusion.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article analyzes the life and scholarly heritage of Burhanuddin al-Nasafi (approx. 600/1203–687/1288), an outstanding representative and encyclopedic scholar of the Mawarannahr school of Kalam in the 13th century. The research examines the historical paradox related to the scholar's personality – the discrepancy between the extreme scarcity of biographical information about him (particularly regarding his teachers) and, at the same time, his high recognition as the “Sheikh of Baghdad's philosophy”. The article analyzes al-Nasafi's international activities (Nasaf, Delhi, Damascus, Baghdad), his belonging to the Maturidi school through the prism of his views on the issue of “the faith of the muqallid” (iman al-muqallid), as well as the circle of his outstanding students, such as Ibn al-Fuwati, Shamsuddin al-Samarqandi, and A'lamuddin al-Barzali. It also reveals the centuries-old bibliographical confusion surrounding the scholar's major works, such as “Kashf al-Haqa’iq” (tafsir) and “al-Fusul al-Burhaniya” (jadal) (including their erroneous attribution to Fakhruddin al-Razi and Muwaffaquddin al-Kawashi), and provides methodological evidence of their true authorship.

AQLIY ILMLARDA QALAM TEBRATGAN NASAFLIK ALLOMA

Sunnatilla Baxromov

Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi ilmiy xodimi

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Burhoniddin Nasafi, Moturidiylik, "Kashf al-haqoiq", "al-Fusul al-Burhoniya", tabaqot, Ibn Fuvatiy, Shamsuddin Samarqandiy, muqallid imoni, kalom ilmi, bibliografik chalkashlik.

Annatatsiya: Ushbu maqolada XIII asr Movarounnahr kalom maktabining yetuk vakili, qomusiy olim Burhoniddin Nasafiyning (taxm. 600/1203–687/1288) hayoti va ilmiy merosi tahlil qilingan. Tadqiqotda olim shaxsiyatiga oid tarixiy paradoks – uning tarjimai holiga oid (xususan, ustozlari haqida) ma'lumotlarning o'ta kamligi va ayni paytda uning "Bag'dod falsafasining shayxi" sifatida yuksak e'tirof etilishi o'rtasidagi nomuvofiqlik o'rganilgan. Maqolada Nasafiyning xalqaro faoliyati (Nasaf, Dehli, Damashq, Bag'dod), uning "muqallid imoni" masalasidagi qarashi orqali Moturidiylik maktabiga mansubligi hamda uning Ibn Fuvatiy, Shamsuddin Samarqandiy, A'lamuddin Barzaliy kabi yetuk shogirdlari tarkibi tahlil qilingan. Shuningdek, olimning "Kashf al-haqoiq" (tafsir) va "al-Fusul al-Burhoniya" (jadal) kabi yirik asarlari atrofidagi ko'p asrlik bibliografik chalkashliklar (ularning Faxriddin Roziy va Muvaffaquddin Kavoshiyga xato nisbat berilishi) va ularning asl muallifligini isbotlovchi uslubiy dalillar ochib berilgan.

НАСАФСКИЙ УЧЕНЫЙ, ПОСВЯТИВШИЙ СЕБЯ РАЦИОНАЛЬНЫМ НАУКАМ

Суннатилла Бахромов

Научный сотрудник

Международного научно-исследовательского центра Имама Матуриди

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Бурхануддин ан-Насафи, Матуридизм, «Кашф аль-хакаик», «Аль-Фусуль аль-Бурхания», табакат, Ибн аль-Фувати, Шамсуддин ас-Самарканди, иман мукаллида, ильм аль-калам, библиографическая путаница.

Аннотация: В данной статье анализируется жизнь и научное наследие Бурхануддина ан-Насафи (прибл. 600/1203–687/1288 гг.), выдающегося представителя, ученого-энциклопедиста мавераннахрской школы калама XIII века. В исследовании изучается исторический парадокс, связанный с личностью ученого, – несоответствие между крайней скудостью биографических сведений о нем (в частности, об учителях) и, в то же время, его высоким признанием в качестве «шейха багдадской философии». В статье анализируется международная деятельность ан-Насафи (Насаф, Дели,

Дамаск, Багдад), его принадлежность к матуридической школе через призму его взглядов на вопрос «веры мукаллида» (иман аль-мукаллида), а также состав его выдающихся учеников, таких как Ибн аль-Фувати, Шамсуддин ас-Самарканди, Аламуддин аль-Барзали. Также раскрываются многовековые библиографические неясности вокруг таких крупных произведений ученого, как «Кашф аль-хакаик» (тафсир) и «Аль-Фусуль аль-Бурхания» (джадал) (включая их ошибочное приписывание Фахруддину ар-Рази и Муваффакуддину аль-Кавашу), и приводятся методологические доказательства их подлинного авторства.

Krisih. XIII asr Movarounnahr ilmiy muhitida yetishib chiqqan qomusiy olimlardan biri Burhoniddin Nasafiydir. Uning tarixiy shaxsiyatini o'rganish manbashunoslikda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bir tomondan, tabaqot asarlari uning aqliy ilmlar, xususan, kalom va falsafa bo'yicha o'z davrining yetuk allomasi sifatida e'tirof etsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy silsilasi, ayniqsa ustozlari haqidagi ma'lumotlar deyarli uchramaydi.

Bundan tashqari, olim merosining taqdiri ham jiddiy bibliografik chalkashliklar bilan bog'liq bo'lgan. Uning eng yirik asarlari ("Kashf al-haqoiq" tafsiri va "al-Fusul al-Burhoniya") uzoq asrlar davomida boshqa mashhur mualliflarga, jumladan, Faxriddin Roziy va Muvaffaquddin Kavoshiyga xatolik bilan nisbat berib kelingan.

Ushbu maqolaning maqsadi – ana shu tarqoq biografik qaydlarni (xususan, uning Nasafdan Dyehli, Damashq va Bag'dodgacha bo'lgan ilmiy safarlarini) hamda asarlarining ichki mazmuniy tahlilini (uning Moturidiylik maktabiga mansubligini belgilovchi "muqallid imoni" kabi masalalar orqali) qiyosiy o'rganib, ushbu yetuk mutafakkirning Islom tafakkuri tarixidagi haqiqiy o'rni va hissasini ochib berishdan iborat.

Asosiy qism. Burhoniddin Nasafiy tarjimai holini o'rganish o'rta asr tabaqot-tarajim adabiyotining o'ziga xos muammosini namoyon qiladi. Manbalarda unga doir ma'lumotlar nihoyatda qisqa, ko'pincha bir-birini takrorlaydigan va tarqoq holda keltirilgan. Ushbu asarlarning hech biri olimning to'liq biografiyasini taqdim etmaydi. Shu sababli, uning hayot yo'lini imkon qadar tiklash uchun turli manbalardagi barcha ishora va qaydlarni sinchkovlik bilan to'plash, ularni o'zaro taqqoslash va shu asosda yaxlit tarixiy manzara yaratish talab etiladi.

Burhoniddin Nasafiyning hayotiga doir ma'lumotlar yetti asrdan ortiq davrni qamrab olgan uzluksiz tarixiy-biografik an'ana orqali bizgacha yetib kelgan. Bu zanjirning dastlabki halqalarini Nasafiydan keyingi asrda yashagan muarrixlar, xususan, Shamsuddin Zahabiy (673-748/1274-

1348)[1, 2] hamda Zayniddin Umar ibn Muzaffar ibn Vardiy (691-749/1291-1348)[3] tashkil qiladi. Keyinchalik, Mamluklar davrida ushbu dastlabki ma'lumotlar Ahmad ibn Ali ibn Abdulqodir Maqriziy (766-845/1364-1441)[4], Ibn Tug'riberdi (813-874/1410-1470)[5] va Qosim ibn Qutlubug'o (802-879/1399-1474)[6] kabi yirik asarlarda jamlanib, Usmoniylar davri bibliograflari Hoji Xalifa (1017-1068/1609-1657)[7] va Ibn I'mod Hanbaliy (1032-1089/1622-1677)[8] tomonidan tizimlashtirilgan. XX asrga kelib, bu an'ana Xayriddin Zirikliy[9] va Umar Rizo Kahhola[10] singari zamonaviy qomusiy nashrlarda bayon qilindi.

Manbalarda Burhoniddin Nasafiyning to'liq ismi bir necha ko'rinishda, "Muhammad ibn Muhammad" yoki "Muhammad ibn Mahmud" tarzida keltirilgan. Olim "Abul Fazl"[11], "Abul Fazoil"[12] va "Abu Abdulloh"[13] kabi kunyalar hamda "Burhoniddin" (Dinning dalili) laqabi bilan tanilgan[14]. Uning "Nasafiy" nisbasi Movarounnahrning qadimiy shaharlaridan biri bo'lmish Nasafda (hozirgi Qarshi) tavallud topganiga ishora qiladi. Uning hanafiy mazhabiga mansubligi borasida manbalarda hech qanday ixtilof yo'q. Garchi ba'zi tadqiqotchilar uni aqidada ash'ariy bo'lgan deb hisoblasa-da, asarlari tahlili bu qarashning xato ekanini ko'rsatadi. Xususan, uning "muqallid imoni"ni sahih (haqiqiy) deb hisoblashi, moturidiylik maktabining o'ziga xos xususiyati bo'lib, uni Abul Hasan Ash'ariy va mo'taziliylarning qarashlaridan aniq ajratib turadi.

Burhoniddin Nasafiyning tavallud sanasi borasida manbalarda aniq bir fikr mavjud emas, lekin aksariyat o'rta asr mualliflari uni taxminan 600/1203 yili tug'ilgan deb qayd qilgan. Biroq uning shogiri, tarixchi Ibn Fuvatiy (642-723/1244-1323)[15] va tabaqot olimi Abdulqodir Qurashiy[16] bu sana aniq emas, balki taxminiy ekanini ta'kidlagan.

O'rta asrlarda Movarounnahr olimlari uchun ilm izlab safar qilish muhim an'ana bo'lgan. Burhoniddin Nasafiy ham bu an'anaga amal qilib, o'z vatani Nasafdan tashqari uchta yirik ilmiy markazda faoliyat yuritgan: dastlab Hindistonda (Dehli), so'ngra Suriyada (Damashq) va nihoyat, hayotining so'nggi manziliga aylangan Bag'dodda.

Uning Dehlidagi faoliyati va o'ziga xos ta'lim uslubi haqida eng qimmatli ma'lumotlardan birini tarixchi Abdulhay Hasaniy (1286-1341/1869-1923) keltiradi. Bu ma'lumotlar Nasafiyning zamondoshi, mashhur tasavvuf namoyondasi Nizomuddin Avliyodan (633-725/1238-1325) naql qilingan. Hasaniyning yozishicha, Nasafiy "fiqh, usul va arab tilida yetuk olim... shayx va buyuk zot"[17] bo'lgan, Dehlidagi podshoh saroyida dars berib, ko'plab olimlar va shayxlarga ustozlik qilgan. Nizomuddin Avliyoning guvohlik berishicha, Nasafiy shogirdlikka qabul qilish uchun uchta qat'iy shart qo'ygan: kunduzi va kechasi faqat bir marta ovqatlanish; darslarga hech qachon kechikmaslik (bir marta kechikkan shogird darslardan butunlay chetlatilgan) va yo'lda uchrashib qolganda, ortiqcha mulozamatlardan tiyilib, faqat sunnatga muvofiq salom berish. Bu shartlar Burhoniddin Nasafiyning o'ta intizomli, zohidlarga xos hayot kechirgan va ilmiy jiddiyatni ustun qo'ygan prinsipial ustoz bo'lganini ko'rsatadi.

Manbalar Burhoniddin Nasafiyni o'z davrining qomusiy bilimga ega yetuk siymosi sifatida tavsiflaydi. U kalom, falsafa, tafsir kabi bir qancha sohalarida chuqur ilm sohibi bo'lgan. Biroq, aksariyat mualliflar Nasafiyning, ayniqsa, bahs-munozara san'ati va hikmat (falsafiy ilmlar) sohalarida o'z zamonida tengsiz bo'lganini alohida ta'kidlaydilar. Bu haqdagi dastlabki va eng muhim tavsiflardan birini Shamsuddin Zahabiy o'zining "Tarix al-islom" asarida keltiradi:

"U – alloma, mutakallim, Bag'dod falsafasining shayxi, xilof ilmida ko'plab asarlar sohibi bo'lgan Burhoniddin Nasafiylardir. Undan ko'plab kishilar ta'lim olgan. U uzoq umr ko'rgan"[2].

Zahabiyning ushbu qisqa, lekin mazmunli bahosi keyinchalik tarixchi Afifuddin Yafa'iy (696–768/1298–1367) tomonidan "Mir'at al-jinan"[18] asarida deyarli so'zma-so'z takrorlangan. Nasafiyning zamondoshi, tarixchi Salohiddin Sofdiy (696-764/1296-1363) ham "al-Vafiy bil-vafayat" asarida uni "hanafiy mazhabidagi shayx, mantiq ilmining bilimdoni va ko'plab asarlar muallifi"[19] sifatida tavsiflaydi.

Uning shaxsiyati va ilmiy qiyofasi haqidagi yanada batafsilroq va eng ishonchli ta'rifni esa shogirdi Ibn Fuvatiydan rivoyat qilib, Ibn Qutlubug'o keltiradi. Ibn Fuvatiy o'z ustozini quyidagicha xotirlaydi:

"U bizning muhaqqiq (tadqiqotchi), mudaqqiq (nozik did sohibi), alloma va hakim shayximiz edi. Uning mashhur asarlari bor. U xilof va falsafa ilmlarida benazir bo'lib, o'z hislarini boshqara olar, shuningdek zuhd yo'lini tutgan edi"[20].

Bu guvohliklar Nasafiyning nafaqat nazariy ilmlar bilimdoni, balki shogirdlari tomonidan yuksak axloqiy sifatleri – zuhd va nafsini boshqara olishi bilan ham hurmat qilingan ulug' ustoz bo'lganini ko'rsatadi.

Burhoniddin Nasafiyning kalom, mantiq va falsafa kabi aqliy ilmlardagi chuqur bilimi uning o'z davrining yetuk ustozlaridan ta'lim olganini taqozo etadi. Shunga qaramay, tarixiy-biografik manbalarda uning ustozlari haqida birorta ham aniq ism keltirilmagani tadqiqotdagi asosiy muammolardan biridir. Shunga o'xshash nomuvofiqlik uning shogirdlari borasida ham kuzatiladi. Tarixchi Shamsuddin Zahabiy "undan ko'plab kishilar ta'lim olgan"[2], deb yozsa-da, manbalarda faqat bir necha shogirdining nomigina saqlanib qolgan.

Uning shogirdlari orasida Bag'doddagi "Nizomiya" madrasasi mudarrisi, Hulokular davlatining "sohib devon"lari oilasidan bo'lgan Sharafuddin Horun ibn Muhammad Juvayniy (vaf. 685/1286) kabi yuqori martabali siyosatchilar bo'lgan.

Shogirdlari orasida eng ahamiyatlisi, shubhasiz, tarixchi Kamoliddin Abdurrazzoq ibn Ahmad "Ibn Fuvatiy" hisoblanadi. Ustozi haqida eng ishonchli birlamchi ma'lumotlarni qoldirgan Ibn Fuvatiy, Jaloliddin Suyuti[21] va Zahabiy[22] tomonidan "ma'rifat bog'i va ma'lumotlar dengizi" deya e'tirof etilgan buyuk tarixchi va hofiz bo'lgan.

Nasafiyning yana bir yetuk shogirdi, “Hakim” (faylasuf) va “Muhandis” (geometr) unvonlari bilan tanilgan Shamsuddin Muhammad Samarqandiy (vaf. 722/1322) edi. Uning “Ishkol at-ta’sis” (geometriya) va “as-Sahoif al-ilohiya” (kalom) kabi asarlar yozgani, Burhoniddin Nasafiyning aqliy va falsafiy ilmlar bo’yicha ham kuchli mudarris bo’lganidan dalolat beradi.

Shuningdek, Burhoniddin Nasafiy Damashqdaligida taniqli muhaddis va tarixchi, Imom Zahabiyning ustoz bo’lgan Abu Muhammad A’lamuddin Qosim Barzaliyga (665-739/1266-1338) ham dars bergan[23]. Uning yana bir shogirdi, Damashq qozisi va “Xotuniya” madrasasi mudarrisi Jaloliddin Ahmad Hanafiy (651-745/1253-1344) bo’lib, Abdulqodir Qurashiyning yozishicha, u “xilof” (huquqiy bahs) ilmini aynan Burhoniddin Nasafiydan o’rgangan[24].

Manbalar Burhoniddin Nasafiyning vafot etgan joyi – Bag’dod – va dafn etilgan makoni (Imom Abu Hanifa qabri yaqinidagi Xayzuroniya qabristoni) borasida yakdil fikrni bildiradi. Biroq, uning vafot etgan aniq sanasi borasida tarixchilar o’rtasida 684/1285, 686/1287 va 688/1289 kabi bir necha xil qarashlar mavjud.

Mavjud tarixiy qarashlarni qiyosiy tahlil qilish asosida, zamonaviy tadqiqotchilarning aksariyati eng to’g’ri va asosli yil sifatida 687/1288 sanasini e’tirof etadi. Ushbu xulosa eng kuchli dalilga – Nasafiyning shogirdi, tarixchi Ibn Fuvatiyning bevosita bergan guvohligiga tayanadi. U ustozining vafot sanasini aniq kun va oy bilan qayd etib: “U zot 687 yil zulhijja oyining yigirma sakkizinchi kuni (1289-yil 25-yanvar) vafot etgan”[25], deb yozadi. Tarixiy manbashunoslikda shogirdning ustoz haqidagi ma’lumoti birlamchi va eng ishonchli manba hisoblanadi.

Burhoniddin Nasafiy ilmiy merosi tahlili uning o’z davri uchun aniq ixtisoslikka ega mutafakkir bo’lganini ko’rsatadi. Uning ijodida asosiy urg’u kalom (islom aqidasi), jadal (ilmiy bahs-munozara san’ati) va hikmat (falsafa) kabi aqliy fanlarga qaratilgan. Shu bilan birga, u islom huquqi asoslari (usul al-fiqh) va Qur’on tafsiriga bag’ishlab ham asarlar yozgan. Umumiy hisobda uning qalamiga mansub o’n to’rtta asar ma’lum bo’lib, quyida ularning eng muhimlari tahlil qilinadi.

Olimning kalom va falsafa sohasidagi muhim risolalaridan biri “Risala fid davr vat tasalsul” (Davr va tasalsul haqidagi risola) deb nomlanadi[29]. Unda mantiqiy xatolar hisoblangan davr (aylanma asoslash) va tasalsulning (sabablar zanjirining cheksizligi) imkonsizligi isbotlanadi. Asarning Qatar milliy kutubxonasida saqlanayotgan nusxasi (№ 0117/6) “O’g’lim, bilginki...” degan murojaat bilan boshlanishi, uning muayyan bir shogirdning savoliga javoban, ta’limiy maqsadda yozilganidan dalolat beradi.

Nasafiyning falsafa va mantiq sohasidagi eng muhim asarlaridan biri buyuk mutafakkir Ibn Sinoning “al-Ishorot vat tanbihot” asariga yozgan sharhidir. Bu asar Nasafiyning o’z davrining eng murakkab falsafiy bahslarida faol ishtirok etganini ko’rsatadi. Uning mavjudligi Hoji Xalifa[30], Ismoil Posho Bag’dodiy[21] va Umar Rizo Kakhola[22, 37] kabi bibliograflarning

asarlarida qayd etilgan. Bugungi kunda asarning ko'plab qo'lyozma nusxalari dunyo kutubxonalarida (Saudiya Arabistoni [№ 184], Misr [№ 18076], AQSh, Suriya, Hindiston, Iroq va Marokash) saqlanmoqda. Shunga qaramay, asarning qo'lyozma an'anasida mualliflik borasida ba'zi chalkashliklar kuzatiladi. Masalan, Turkiya kutubxonalaridagi ayrim nusxalar xatolik bilan Ibn Sinoning boshqa bir mashhur sharhlovchisi – Faxriddin Roziyga (544-604/1149-1207) nisbat berilgan.

Burhoniddin Nasafiy ilmiy merosida bahs-munozara san'atiga (jadal) bag'ishlangan “al-Fusul al-Burhoniya fi al-jidal” (Bahs-munozara ilmidagi Burhoni fasllar) asari alohida o'rin tutadi. Zamonaviy tadqiqotchi Larriy Miller ta'kidlashicha, bu asar shunchaki munozara qoidalari haqida emas, balki islom huquqi mezonlari asosida fikr yuritish va bahs olib borish metodologiyasini ishlab chiqqan muhim qo'llanmadir[23, 97]. Qizig'i shundaki, Nasafiyning ushbu asariga uning shogirdi, mashhur olim Shamsuddin Samarqandiy tomonidan “Miftoh an-nazar fi ilm al-jidal” nomli sharh yozilgan va bu sharh Nasafiyning asl asaridan ham mashhurroq bo'lib ketgan.

Bu holat keyingi davr bibliografik manbalarida jiddiy chalkashliklarga sabab bo'lgan. Masalan, Hoji Xalifa “Kashf az-zunun”[24] asarining bir o'rnida Samarqandiyning “Miftoh an-nazar”ni xatolik bilan Nasafiyning o'ziga nisbat berib, uni “Muqaddimatun fi al-jadal” deb ataydi. Ismoil Posho Bag'dodiy bu sharhni “Sharh Muqaddima al-Burhoniya”[25] nomi bilan keltirsa, Zirikliy “Sharh Muqaddima al-Burhoniya” va “Miftah an-nazar”ni ikki alohida asar deb xato qayd etgan[36]. Xulosa qilib aytganda, Nasafiyning “al-Fusul al-Burhoniya” asari o'z davri uchun muhim metodologik qo'llanma bo'lgan, ammo shogirdi Samarqandiy tomonidan yozilgan sharhning shuhrati asl matndan oshib ketib, ko'p asrlik bibliografik chalkashliklarga sabab bo'lgan.

Olimning bahs-munozara san'atiga yaqin bo'lgan yana bir muhim soha – xilof ilmiga (turli fiqhiy mazhablarning ixtilofli qarashlari) bag'ishlangan “Mansha an-nazar fi ilm al-xilaf” (Xilof ilmidagi nazariy mulohazalarning boshlang'ichi) asari ham ma'lum. Bundan tashqari, manbalarda uning aynan shu asarga o'zi yozgan “Sharh al-mansha” nomli sharhi ham mavjudligi qayd etilgan.

Burhoniddin Nasafiyning o'z davrining yirik diniy-falsafiy an'analari bilan chuqur muloqotda bo'lganini ko'rsatuvchi yana bir asari – bu “Sharh ar-risala al-qudsiya bi-adillatiha al-Burhoniya lil-G'ozaliy” (G'azzoliyning “Qudsiya” risolasiga Burhoni dalillar bilan yozilgan sharh). Bu asar buyuk mutafakkir Abu Homid G'azzoliyning (450-505/1058-1111) aqidga oid mashhur “ar-Risala al-qudsiya” asariga bag'ishlangan. Asar nomidagi “bi-adillatiha al-Burhoniya” (Burhoni dalillari bilan) iborasi, Nasafiy unda G'azzoliyning aqidaviy qarashlarini o'ziga xos uslubi va aqliy dalillari orqali tahlil qilganini ko'rsatadi. Moturidiylik ta'limoti olimining ash'ariy

maktabining eng yirik vakili asariga sharh yozishi uning o'zga maktablar bilan ham chuqur ilmiy bahsga kirishganidan dalolat beradi.

Burhoniddin Nasafiyning eng muhim asarlaridan biri uning "Kashf al-haqoiq va sharh ad-daqiq" (Haqiqatlarni kashf qilish va daqiq ishlarni sharhlash) nomli Qur'on tafsiridir. Ushbu asarning nomi va muallifligi borasida tarixiy manbalarda jiddiy chalkashliklar mavjud. Asar nomi qo'lyozmalarda "Kashf al-haqoiq fit-tafsir" deb kelsa, tabaqot kitoblarida "al-Vozih" yoki "Faxriddin Roziy tafsirining qisqartmasi" kabi tavsifiy nomlar bilan atalgan.

Asar muallifligi borasidagi chalkashlik yanada murakkabroq. Manbalarda uch nafar asosiy nomzod tilga olinadi: Burhoniddin Nasafiy, Faxriddin Roziy va Muvaffaquddin Kavoshiy. Ba'zi katalog yozuvlarida "al-Vozih" nomli tafsir Roziyga nisbat berilgan, biroq tadqiqotlar buning xato ekanini ko'rsatgan. Hoji Xalifa ("Kashf az-zunun") va Brokkelman kabi nufuzli bibliograflar ushbu tafsirni Muvaffaquddin Kavoshiyga (vaf. 680/1282) nisbat berganlar. Bu qarash keng tarqalgan bo'lsa-da, uslubiy tahlil uning xato ekanini ko'rsatadi. Ma'lumki, Kavoshiyning tafsirlari ("at-Tabsira", "at-Talxis") asosan lug'aviy-grammatik tahlil va rivoyatlarga tayanadi. "Kashf al-haqoiq" esa, bundan farqli o'laroq, kalom, jadal (bahs-munozara) va mantiqqa katta urg'u beradi. Unda muallif mo'taziliylik va jabariylik kabi fiqhlar bilan faol bahsga kirishadi. Bu uslub Kavoshiyga xos emas, aksincha, aqliy fanlar bilimdoni sifatida tanilgan Nasafiyning ilmiy qiyofasiga to'liq mos keladi. Yuqoridagi tahlillar, ya'ni boshqa nomzodlarning rad etilishi va asar uslubining Nasafiyning ilmiy yo'nalishiga mos kelishi, "Kashf al-haqoiq" tafsirining haqiqiy muallifi aynan Burhoniddin Nasafiy ekanini tasdiqlaydi.

Xulosa. Burhoniddin Nasafiyning hayoti va merosi tahlili o'rta asrlar manbashunosligidagi yorqin nomuvofiqlikni namoyon qiladi: bir tomondan, olim haqidagi biografik ma'lumotlar (ayniqsa, ustozlari) o'ta kam, ikkinchi tomondan, uning "Bag'dod falsafasining shayxi" va "xilof ilmlarida benazir" sifatidagi shuhrati o'z davrida juda yuqori bo'lgan. Uning Moturidiylikka mansubligi, garchi bahsli bo'lsa-da, "muqallid imoni"ni sahih deb bilishi orqali qat'iy isbotlanadi. Nasafiyning xalqaro faoliyati (Dehli, Damashq, Bag'dod) va uning dars xalqasidan (Ibn Fuvatiy, Shamsuddin Samarqandiy kabi) yetuk shogirdlarning yetishib chiqishi uning qomusiy mutakallim-faylasuf bo'lganini tasdiqlaydi.

Olim merosining taqdiri ikkita asosiy bibliografik chalkashlik bilan ajralib turadi. Birinchidan, uning bahs-munozaraga oid "al-Fusul al-Burhoniya" asari shogirdi Shamsuddin Samarqandiy tomonidan yozilgan mashhur sharh soyasida qolib ketgan. Ikkinchidan, uning shoh asari – "Kashf al-haqoiq" tafsiri – uzoq vaqt davomida xatolik bilan Faxriddin Roziy yoki Muvaffaquddin Kavoshiyga nisbat berib kelingan. Biroq, asarning kuchli kalomiy, munozaraviy va mantiqiy uslubi uning aynan Nasafiy qalamiga mansub ekanini isbotlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Burhoniddin Nasafiy, garchi merosi asrlar davomida bibliografik chalkashliklar soyasida qolgan bo'lsa-da, Moturidiylik ta'limotining aqliy an'analarini Hindiston va Yaqin Sharq ilmiy markazlariga olib chiqqan XIII asrning eng yetuk mutakallim-faylasuflaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shamsuddin Zahabiy. al-Ibar fi xabar man g'obar // Salohiddin Munajjid tahqiqi. – Quvayt: Quvayt hukumati nashriyoti, 1984.
2. Shamsuddin Zahabiy. Tarix al-islom // Umar Abdussalom Tadmiri tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-arobiy, 1987.
3. Zayniddin Umar ibn Muzaffar ibn Vardiy. Tarix ibn Vardiy // Muhaqqiqi noma'lum. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1996.
4. Salohiddin Sofdiy. al-Vofiy bil-vafoyat // Ahmad Arnaut tahqiqi. – Bayrut: Dor ihyo at-turo al-arobiy, 2000.
5. Abdulqodir Qurashiy. Al-Javohir al-muziya // Abdulfattoh Muhammad Huluv tahqiqi. – Giza: Dor Hijo, 1993.
6. Tojiddin Subkiy. Tobaqot ash-shofe'iya al-kubro // Abdulfattoh Muhammad Huluv tahqiqi. – Giza: Dor Hijo, 1993.
7. Badruddin Ayniy. I'qdu al-juman fi tarix ahli az-zamon // Mahmud Razzoq Mahmud. – Qohira: Dor al-kutub va al-vasaqo al-qovmiya, 2010.
8. Ahmad ibn Ali ibn Abdulqodir Maqriziy. as-Suluk li-ma'rifati duval al-muluk // Muhammad Abdulqodir A'to tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1997.
9. Ibn Hajar Asqaloniy. ad-Durar al-kamina fi a'yon al-mia as-samina // tahqiqi. – Haydarobod: Doira al-ma'rifa, 1972.
10. Qosim ibn Qutlubug'o. Toj at-tarajim // Muhammad Muhyiddin Abdulhamid tahqiqi. – Misr: Matbaa as-sa'ada, 1952.
11. Ibn Tug'riberdi. al-Manhal as-sofiy va al-mustasfa ba'da al-vofiy // tahqiqi. – Shahar: nashriyot, yil.
12. Jaloliddin Suyutiy. Tobaqot al-huffoz // tahqiqi. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1983.
13. Toshko'pruzoda. Miftah as-Sa'ada.
14. Hoji Xalifa. Kashf az-zunun a'n asomi al-kutub va al-funun // Muhaqqiqi noma'lum. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1992.
15. Hoji Xalifa. Sullam al-vusul ila tobaqot al-fuhul // Mahmud Abdulqodir Arnaut tahqiqi. – Istanbul: IRSIKA, 2010.
16. Ibn I'mod Hanbaliy. Shazarot az-zahab fi axbori man zahab // Abdulqodir Arnaut tahqiqi. – Damashq: Dor ibn Kasir, 1987.

17. Muhammad Shavkoniy. al-Badr at-toli' bi-mahasin min ba'd al-qorn as-sabi' // Muhaqqiqi noma'lum. – Qohira: Dor al-kitob al-islomiy, yili ko'rsatilmagan.
18. Ismoil Posho Bag'dodiy. Hadiyat al-orifin. – Tehron: Maktaba al-islomiya, 1967.
19. Abdulhay Laknaviy. al-Favoid al-bahiya fi tarojim al-hanafiya // Muhaqqiqi noma'lum. – Misr: Dor as-sa'ada, 1907.
20. Abdulhay ibn Faxruddin Hasoniy. Nazhatu al-xavotir va bahjatu al-masomi' va an-navozir // Muhaqqiqi noma'lum. – Bayrut: Dor ibn Hazm, 1999.
21. Xoyriddin Zirikliy. al-A'lam. – Bayrut: Dor al-ilm lil-malayin, 2002.
22. Umar Rizo Kakhola. Mo'jam al-muallifin. – Bayrut: Dor ihyo at-turos al-arobiy, yili noma'lum.
23. Miller, L. B. Islamic Disputation Theory.